

**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БОЛА НУТҚИНИ
RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI
СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ДЕТСКОЙ РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ
CONTENT OF CHILD SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL
EDUCATION**

**Xasanova Gulnoza Ilhom qizi
Maktabgacha ta’lim metodikasi
kafedrası o’qituvchisi
Xamzayeva Gavxar**

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Bolaning nutqi til qonuniyatlariga to‘g‘ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o‘zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bola nutqini rivojlantirishning mazmuni haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: fonetika, leksika va grammatika, ifoda vositalari, sezish, xotira, idrok qilish, fikrlash, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik.

Annotation: A child's speech develops as a result of following the rules of language, understanding adult speech, and being creative. this article discusses the content of child speech development in preschool education.

Keywords: phonetics, vocabulary and grammar, means of expression, perception, memory, perception, thinking, interethnic harmony and religious tolerance.

Аннотация: речь ребенка развивается в результате соблюдения правил языка, понимания речи взрослых и творческих способностей. В статье рассматривается содержание речевого развития ребенка в дошкольном образовании.

Ключевые слова: фонетика, лексика и грамматика, средства выражения, восприятие, память, восприятие, мышление, межнациональное согласие и религиозная терпимость.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi,

xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2017 yil 26 sentyabrdagi "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3289-sonli Qarori, shuningdek, 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707sonli qarori, hamda 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qaroridagi zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini qayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi bilan bir qatorda huquqiy savodxonligini ham muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.



Ma'lumki, bolaning nutqi til qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o'zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Til va nutq maktabgacha katta yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishi hamda dastavval xotirasi, fikrlashi, idrok etishi, hissiyoti va ehtirosini ta'minlaydigan ikkita muhim vositadir.

Birinchi qonuniyat: Ona tilidagi nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlari muskullarining mashq qildirilishiga bog'liq.

Ikkinchi qonuniyat: Nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o'zlashtirilishiga bog'liq.

Uchinchi qonuniyat: Nutq ifodaliligini o'zlashtirish bolada fonetika, leksika va grammatikaning ifoda vositalarini tushunishga bo'lgan moyillikka bog'liq

To'rtinchi qonuniyat: Nutqni boyitish, avvalo, nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga bog'liq. Bundan tashqari, tadqiqotchilar tomonidan nutqni boyitish jadalligi tilni his etish, bilish imkoniyatlari (sezish, xotira, idrok qilish, fikrlash), iroda kuchining rivojlanishiga ham bog'liq.

Beshinchi qonuniyat: Nutq me'yorlarini o'zlashtirish tilni his etishning rivojlanishiga bog'liq. Bolalarning nutqini o'zlashtirishda tinish belgilarini qo'llash me'yori, eslab qolish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Me'yorlangan nutqda ona tili unsurlarini an'anaviy qo'llashda inson hayotining asosan maktabgacha katta yoshdagi davri samarali bo'lishi ona tili metodikasi ilmida allaqachon o'z isbotini topgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kompleksini hal etishda quyidagilar alohida hisobga olinadi:

Psixologlarning kuzatishicha, tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlar nutq orqali o'zlashtiriladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda keng imkoniyatlar tug'diradi. Shunga ko'ra tarbiyachilar maktabgacha katta yoshdagi bolalar-ning nutqini to'g'ri yo'naltirishni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiradi. Bolalar nutqini rivojlantirish samaradorligiga erishish uchun ularning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy qobiliyati xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Shu narsa aniqlanganki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning barcha harakat va xulqini boshqarishda bosh miya faoliyatining roli ortib boradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga nutqni o'rgatish uchun bo'lajak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o'rganishi va ushbu sohaning fanga ma'lum bo'lgan metodlarini o'zlashtirishi, bolaning ona tilini o'zlashtirish

qonuniyatlarini tushunib yetishi lozim. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy natijalar muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o'ringa o'tadi. Bola o'z tengdoshini kattalardan afzal ko'ra boshlaydi. O'yin jara-yonidagi o'rtog'iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo'lgan muloqotga qaraganda ancha mazmunliroq bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. L.R.Mirjalolova va boshqalar Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. T.: 2018 [1/6] 147 bet
2. Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti va folklori" O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti T.2006 [1/51] . 214bet
3. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(1), 778-782.
- 5..М.А.Норқўзиева Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюксиймоларнинг роли Самарқанд 2020
- 5 Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.
- 6.Norquziyeva, M. (2020). Бўлажак ўқитувчиларнинг касбга муносабатини ўзгартириш-касбий барқарорликни таъминлаш гарови. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
- 8.Abduraxmonovna, N. M. (2020). ENSURING PROFESSIONAL STABILITY OF FUTURE TEACHERS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(6).

9. Norquziyeva, M. (2021). Xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Журнал дошкольного образования, 2(2).

10. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.

11. Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1378-1383.